

# **“International Conference on Electrical Engineering & Computing Convergence and Applications 2023”**

2023-yilning 16-19-avgust kunlari Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universitetida elektrotexnika, hisoblash konvergensiysi va ularning amaliyotda qo'llash bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tmoqda.

Gibrid formatda (offlayn va onlayn) o'tayotgan konferensiyada elektrofizika va uni amaliyotda qo'llash, energiya taqsimotini nazorat qilish, sun'iy intellekt va tizim konvergensiysi, yashil tabiatga zarar keltirmaydigan intellektual transport tizimlari, geomatik muhandislik hamda qurilish loyihalalarini modellashtirish kabi mavzularga oid bir qancha ilmiy maqolalar va izlanishlar muhokama qilinishi ko'zda tutilgan.qaratilgan.

## **Xalqaro konferensianing asosiy tashkilotchilari:**

- KIEE-Electro-physics & Application Society
- Koreya Milliy Transport Universiteti
- Toshkent shahridagi Turin Politeknika Universiteti,
- Turin Politeknika Universiteti (Italiya)
- Muxammad al-Xorazmiy nomli Toshkent Axborot texnologiyalari Universiteti

Joriy yilning 18 avgust kuni, TPPUda Elektrotexnika, hisoblash konvergensiysi va ularning amaliyotda qo'llash bo'yicha “International Conference on Electrical Engineering & Computing Convergence and Applications 2023” (ICEE-CCA 2023) xalqaro konferensianing ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Koreya kompyuter va axborot jamiyati raisining 1-o'rribosari Dr. Von-Ju Li, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti birinchi prorektori Dr. Doniyor Yakhshibaev konferensiyani ochib beridi. Koreya Respublikasining O'zbekistondagi vazir-maslahatchisi va Bosh konsuli Janob Jan Xyon Kuk, hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori To'ychiyev Olimjon Alijonovich tabrik so'zi bilan ishtirok etishdi.





Konferensiyaning davomida elektrotexnika, axborot texnologiyalari hamda muhandislik sohalarining turli tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan mahalliy va xorijiy

yetakchi tadqiqotchilar, o'qituvchi-professorlar, olim va mutaxassislar onlayn va oflays ravishda o'z ilmiy ishlari va tadqiqotlari bilan ishtirok etdi.

Tadbir doirasida Korea sanoat korxonalari va mamlakatimizdagi innovatsion loyihamar ko'rgazmasi ham tashkil etilib, mehmonlar u yerdagi loyihamar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lishdi. Konferensiya o'z ishini sho'balarda davom etdi (oral session, poster session)





Shu bilan birga TTPU, Koreyaning Daejeon University va Korea Kompyuter axboroti jamiyati bilan birligida o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.





